

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Oktyabr, 2025-yil

KRIMINAL AXBOROTNI YORITISH TEXNIKASI

Xajiyeva Madinaxan Ravshanbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada kriminal axborot yoritilish texnikasining asosiy jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kriminal axborot, yuridik til, hujjatlilik, da'vogar, ayblanuvchi, sudlanuvchi

Jurnalist axborotni ta'sirli qilib yetkazish maqsadida turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi mumkin. Jurnalistikada asosan sharx, sifatlash, qiyoslash kabi vositalardan keng foydalaniladi. Kriminal jarayonlarni yoritishda ma'lumotlarni tartiblashtirish ularni bir sistemaga solish, faktlarni yetarlicha to'plash va rasmiy manbalardan qonun doirasida olingan axborotlar orqali auditoriyaga ma'lumotni berish kerak. Jurnalist maqolaning uslubi, janri va tiliga ahamiyat qaratishi muhim. Ilmiylikka asoslanib rasmiy uslub yetakchilik qilgan kriminal axborotlar auditoriya diqqatini oson tortmaydi. Jurnalist kriminal mavzuni yoritarkan o'z emotsiyalarini boshqara olishi bu materialning o'qimishli chiqishini taminlaydi. Bilamizki, xuquqiy nashrlarda rasmiylik ustuvor bunga sabab esa ularda chop etilayotgan materiallarda hujjatlilik, aniqlik, huquqiylik ustuvorligidadir. Auditoriyaning rasmiy xarakterga ega maqolalarni ijobiy qabul qilolmasligi ommaviy psixologiya qonunlarida etirof etilgan.

Demak, sudga oid materiallarni yoritishda jurnalist zimmasidagi eng muhim vazifa - hujjatlarga asoslangan aniqlik va ehtiroslilik muvozanatiga erishishdir. Bundan tashqari, jurnalist asarida syujet qurilishi, kasb odobi, aniqlik va umumiylik uyg'unligi, o'xshatish va mubolag'alarni qo'llash mahorati kabi masalalar ham muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, yuridik tilning o'ziga xos xususiyatlari va qoidalari mavjud. Zero, jurnalist sud jarayoni haqida maqola yozayotganida, ko'rsatuv yoki eshittirish tayyorlayotgan chog'ida yuridik til qoidalariga amal qilishi lozim. Aks holda, masalaning mazmun-mohiyati o'zgarib ketishi, maqolaning saviyasiga putur yetishi mumkin. Jurnalist o'zi qo'llayotgan badiiy vositalar kimningdir nafsoniyatiga, sha'niga tegib, teskari natijaga olib kelishi mumkinligini aslo unutmasligi kerak.

Filologiya fanlari nomzodi S.Usmonov qayd etganidek, «Qonun tilida noto'g'ri qo'llanilgan birgina tovush, qo'shimcha va so'z, hatto birgina tinish belgisi qo'pol mazmuniy va uslubiy xatolarni, nuqsonlarni, g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Masalan:

O'lim yo'q, shafqat.

O'lim, yo'q shafqat.

Ko'rinib turibdiki, birgina vergulning o'rnini almashtirish nafaqat uslubiy xato hisoblanadi, balki jinoyatni yuridik baholashda ham kechirib bo'lmaydigan xatolarni keltirib chiqaradi».[1]

Bundan tashqari yurisprudensiya tarmoqlariga oid leksik-grammatik xususiyatlar umumiyliги bilan bir-biriga yaqin tursa-da, o‘ziga xos xususiyliklarga ham egadir. Masalan, fuqarolik sudi faoliyatida qo‘llaniladigan terminlar (da‘vogar, taraf, taraflarning tortishuvi, da‘vo qo‘zgatish, javobgar, hal qiluv qarori, da‘voni ta‘minlash) jinoyat sudi faoliyatida qo‘llanuvchi terminlar (sudlanuvchi, bosqinchilik, firibgarlik, odam o‘ldirish, nomusga tegish, terrorizm)dan tubdan farq qiladi. Ba‘zan jurnalistlar o‘z chiqishlarida fuqarolik yoki jinoiy sudlargagina xos bo‘lgan bu terminlarni farqlay olmaydilar, natijada jiddiy yuridik xatoga yo‘l qo‘yadilar. Shu jihatdan filologiya fanlari doktori Sh.Ko‘chimovning «Yuridik atamashunoslik muammolarini chuqur ilmiy asosda o‘rganish» [2]bo‘yicha takliflari e‘tiborga molik.

Sud jarayonlarini yorituvchi jurnalistlar protsessual qonunchilik talablarini bilishi va o‘z chiqishlarida bunga amal qilishlari lozim. Zero, «Sud muzokarasi yakunlangach, so‘nggi so‘z berilgan jinoiy uyushma tashkilotchisi sud tergovida barcha aybini bo‘yniga olib, suddan kechirim so‘radi», [3]deb yozish sudning haqli ravishda e‘tiroziga sabab bo‘ladi. Chunki jurnalist sud protsessi bosqichlarini adashtirib yuborgani holida sudning protsessual qonunchilikka amal qilganiga shubha uyg‘otdi. Yoki «sudning qora kursisida bosh egib o‘tirgan ayblanuvchi»[4] tarzida yozilishi ham xato, chunki u endi ayblanuvchi emas, balki sudlanuvchi, deb yuritiladi.

Yuridik til - ko‘p ming yillik taraqqiyot va ko‘p avlodlar tajribasi mahsuli, - deb yozadi taniqli olimlar A.Saidov va G.Sarkisyan «Yuridik til va huquqshunos nutqi» kitobida.[5]Shunday ekan, yuridik tilga shunchaki ko‘r-ko‘rona munosabatda bo‘lish yoki uning qoidalariga amal qilmaslik mumkin emas. Chunki huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o‘zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo‘lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismi va bu sud jarayonlarini yorituvchi jurnalistdan huquqiy savodxonlikni talab etadi.

Gazeta tilidagi kamchiliklarning, xato va nuqsonlarning ma‘lum qismi ayni mana shu tamoyillar asosida yuzaga keladi: nolisoniy omilni suiiste‘mol qilish, axboriylik yoki ta‘sirchanlik nisbatini buzish turli qusurlarga sabab bo‘ladi.

Muayyan bir voqea yoki hodisa ijtimoiy-adabiy fakt sifatida gazeta sohasida o‘zidan-o‘zi aks etmaydi, balki nolisoniy mezonga muvofiqlashtirilgan holda matniy ifodaning umumiy qonuniyatlari bilan ham uyg‘unlashtiriladi.[6]Zero, jurnalistik material qaysi janr yoki shaklda bo‘lmasin u, avvalo, muayyan axborotni ifodalaydi. Bunda axborotning tili va uslubi, ifodalanish tarzi ham muayyan ma‘lumotlarni ifodalaydi. Faqat u sodda, ravon, ixcham, bir so‘z bilan aytganda, xalqchil bo‘lsa, o‘qishli va ayni paytda samaradorligi yuqori bo‘ladi. Sarlavhalar, ruknlar gazeta sahifalaridagi materiallar mazmuniga ishora qiladi, gazeta matnlarining umumiy mavzui va mazmuni haqida ma‘lumot beradi. Huquqiy materiallarga ta‘sirchan, original sarlavha va ruknlarning qo‘yilishi materialning muhimligini, dolzarbligini ta‘kidlash bilan birga uning qiymatini ham oshiradi.

Axborotning tezkorligi va yangiligi ta‘sirchanlikning asosiy omilidir va bu sifatlar matnda ifodalanadi. Yangilik sifatida matnning voqea-hodisa bayonigagina (faktografik qismigagina) emas, muallifning talqini va sharhiga ham bevosita daxldorligi haqida

20-Oktyabr, 2025-yil

tilshunos olimlar I.Toshaliyev, R.Abdusattorov, S.Mahmudova alohida to‘xtalib, quyidagilarni bayon etadi: «Ayni bir hodisani ikkita gazeta yoki ikkita jurnalist turlicha talqin etishi mumkin. Bunday muloqot ta’sirchanligining uchinchi omili - matnning, axborotning muallif shaxsi va talqini bilan bog‘liq jihati kelib chiqadi. Bu endi jurnalist «Meni»ga oid xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Asosiy xabar (fakt) muallifning shaxsiy talqini orqali namoyon bo‘ladi. Bu ommaviy muloqotda baholash, sharhlash, dalillash va ishon tirish amallarini o‘z ichiga oladi. Asoslangan, dalillangan talqin (yoki sharh) ishonarli bo‘ladi». Matbuotda sud jarayonini yoritishda asoslangan, dalillangan talqin, ayniqsa, ahamiyatlidir. Shu jihatdan sud jarayonidan tayyorlangan materiallarda jurnalist «meni»ning ishtirok etishini ma’qullab bo‘lmaydi. Chunki jarayonni yoritayotganda jurnalistning vazifasi axborot berish (bunda uning shaxsiy fikriga o‘rin bo‘lmasligi kerak), faktlarni keltirish, zarur bo‘lganda, yuksak saviyada ularni tahlil qilib berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Усмонов С. Юристнинг нутқ маданияти. - Тошкент: ТДЮИ, 2005. - Б. 12-13.
2. Кўчимов Ш.Н. Ҳукукий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил). Фил. фан. доктори... диссер автореферати. - Тошкент: Алишер Навоий номли тил ва адабиёт институты, 2003. - Б. 44.
3. Азимов М. Қилмиш - қидирмиш // Чирчиқ тонги. 1993, 18 февраль.
4. Одилов Б. Отасининг қотили // Media plus. 2007, 19 апрель.
5. Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. - Тошкент: Адолат, 1994. - Б. 5.
6. Тошалиев И., Абдусатторов Р., Маҳмудова С. Оммавий ахборот воситаларининг тили ва услуби. (Журналистика таълими учун маърузалар матни) - Тошкент: Университет, 2000. - Б. 40.